

# **QORAQALPOG‘ISTONDA MADANIY MEROS VA UNI SAQLASHDA FOLKLOR HAMDA ETNOGRAFIYANING O‘RNI**

**Kunnazarova O.M.**

*TDIU 2-kurs tayanch doktoranti*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.20308246>

Ushbu maqolada Qoraqalpog‘iston Respublikasining madaniy merosi, uni saqlash va rivojlantirish jarayonida folklor hamda etnografiyaning o‘rni tahlil qilinadi. Folklor xalq og‘zaki ijodi sifatida tarixiy xotirani ifodalasa, etnografiya xalqning turmush tarzi, urf-odatlar va an‘analarini o‘rganadi. Tadqiqotda Qoraqalpoq xalqining madaniy merosi, uning asosiy elementlari va zamonaviy sharoitda saqlash mexanizmlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, folklor va etnografik materiallarning milliy identitetni shakllantirishdagi ahamiyati ham yoritiladi.

Qoraqalpog‘iston, madaniy meros, folklor, etnografiya, xalq og‘zaki ijodi, urf-odatlar, an‘analar, milliy identitet, etnoturizm, madaniy saqlash.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Markaziy Osiyoning boy madaniy merosga ega hududlaridan biri hisoblanadi. Bu o‘lka qadimdan xalq og‘zaki ijodi (folklor) va etnografik an‘analarini saqlab kelgan. Hudud ilmiy madaniyat markazlaridan biri bo‘lib, boy tarixiy va madaniy merosga ega. Ushbu merosni o‘rganishda folklor va etnografiya fanlari alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki ular xalqning ma‘naviy dunyosi, tarixiy rivojlanishi va ijtimoiy hayotini aks ettiradi. Folklor va etnografik tadqiqotlar esa xalqning tarixiy xotirasi, turmush tarzi, urf-odatlar va dunyoqarashini o‘rganishda muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Hozirgi globallashtirish jarayonida milliy madaniyat, urf-odatlar va etnik o‘ziga xoslikni saqlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Qoraqalpog‘iston hududi qadimdan boy tarixiy, madaniy va etnografik an‘analarga ega bo‘lib, bu hududni o‘rganish Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatini chuqur anglashda muhim o‘rin tutadi. Shu nuqtai nazardan, Qoraqalpog‘istonda olib borilayotgan etnografik tadqiqotlar nafaqat tarixiy merosni o‘rganish, balki uni zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida tahlil qilish imkonini beradi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy hayotida jahon madaniy merosini ommaviylashtirish va uni asrab avaylashga katta e‘tibor qaratilmoqda. Tarixiy merosni asrab-avaylash, o‘rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Bu borada zamonaviy ilm-fan yutuqlarini joriy qilish, sohaning moddiy-texnik bazasini rivojlantirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish, YUNESKO bilan hamkorlikda moddiy madaniy merosini o‘rganish, asrab-avaylash va saqlashga qaratilgan aloqalar yuzasidan ilmiy tadqiqot olib borish zaruratini ko‘rsatadi. Ayniqsa, mintaqaning moddiy madaniy merosini

o'rganishga halqaro tajriba asosida yondashish va uni tadqiq etish muhimligidan dalolat beradi [1, b. 316].

Madaniy merosni o'rganishda uslubiy jihatlarni hisobga olganholda, madaniy meros tushunchasining murakkab va ko'p bosqichli ekanligini alohida ta'kidlash lozim. Har qanday xalqning va har qanday mamlakatning madaniy merosi, madaniy tizimning uzluksizligini va ijtimoiy-madaniy o'ziga xosligini turli shakllarda –etnik-madaniy, diniy, milliy, davlatda saqlash uchun madaniy omillarning potentsialini to'plash va aktuallashtirish eng muhim shaklidir. U odamlarning tarixiy ongini egallaydi, jamiyatning ko'payishi va rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Amudaryo va Sirdaryoning yetaklaridagi aholining joylashishi, turli etnoslar, ko'chmanchi, yarim ko'chmanchi xalqlarning ijtimoiy hayotini tadqiq etish etnograflarga katta qiziqish uyg'otgan. Shunday etnik birliklardan biri qoraqalpoqlar bo'lib, ular O'rta Osiyo xalqlari madaniyatiga katta ta'sir ko'rsatgan. N.Baskakov, A.Morozova, S.Malovsingari olimlar Qoraqalpog'iston etnografiyasini o'rganish asnosida qoraqalpoqlarning tarixi, madaniyati, urf-odat, an'analalariga oid qimmatli materiallarni to'plab, tartibga solish, tahlil qilish vayagona qoraqalpoq orfografiyasini belgilash borasida katta hajmdagi ishlarni bajarishdi [2, b. 58]. Dastlab qoraqalpoq atamasi haqida to'xtaladigan bo'lsak, S.P.Tolstov fikriga ko'ra, birinchi bo'lib qipchoqlar, sharqlik pecheneglarni bosh kiyimlariga qarab, "qoraqalpoq" deb ataganlar. Binobarin, qoraqalpoqlar o'zlarining hozirgi nomlarini XI asrdayoq tug'ilib o'sgan yurtlari –Orol va Amudaryo sohillarida olganlar [3, b. 116].

Qoraqalpoq etnografik tadqiqot ishlari 1945-yildan boshlangan bo'lib, barcha mavsumiy o'n besh dala ekspeditsiyada guruhni T.Jdanko boshqargan va yillar davomida xodimlar tarkibi o'zgarib turgan. Rus mutaxassislaridan N.P.Lobacheva, B.V.Andrianov, L.S.Tolstova hamda Qoraqalpog'iston ilmiy muassasa xodimlari R.K.Kosbergenov, S.K.Kamalov, U.X.Shelekonov singari xodimlar faoliyat yuritishgan [4, b. 89].

Qoraqalpoqlarqadimiy o'tovlari o'rniga, sug'orish tarmoqlari bilan bir qatorda dumaloq shakldagi o'tovlar o'rganildi. O'tovqishda qamish yoki tuproq to'siqlar bilan qoplangan, ba'zi o'tovlar ichida kichik loydan tayyorlangan kulbalar bo'lib, ular maishiy maqsadlarda omborxonalar vazifasini bajargan. O'tovlar Amudaryo sohilining shimoliy qismida keng tarqalgan bo'lib, unda asosan baliqchilik xo'jaligi bilan shug'ullanuvchi aholiyashagan. T.Jdanko boshchiligidagi etnografik guruh boshlagan o'tovlarni o'rganish faoliyatini

1970-yillarda X.Yesbergenov davom ettirgan va ushbu izlanishlar Qoraqalpoq o'tovlari haqida kinofilm yaratilishi uchun asos bo'lib xizmat qilgan. Har qanday xalqning kiyimi bu moddiy madaniyat va etniklikning yorqin

ko'rsatkichidir. Libos bezaklaridagi bezaklardagi qadimiy elementlar etnogenez muammolarini o'rganish uchun vosita vazifasini bajaradi. Kiyim-kechaklar xalq xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlari, oilaviy hayotning ba'zi jihatlari va tabiiy sharoitlarni aks ettiradi. O'tmishda kiyim-kechaklar ayniqsa, bosh kiyimlar shaxsning oiladagi yoki jamiyatdagi mavqei, yoshiga qarab belgilangan. Zamonaviy milliy libosda saqlangan qadimiy bezak elementlari – xalqning etnikva madaniy tarixini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Qoraqalpoqlar milliy liboslaridagi ko'plab elementlar arxeologlarning ham qiziqishini uyg'otib, xalqsan'ati va moddiy madaniyatining ayrim xususiyatlarini aniqlashga turtki bo'lgan. Ekspeditsiya xodimi X.Yesbergenov qoraqalpoqlar kiyim-kechaklarini tadqiq qilishga katta e'tibor qaratgan. U o'zining dala materiallarini muzey kolleksiyalari bilan birlashtirgan natijada qoraqalpoqlar kiyim-kechaklari haqida o'zining tadqiqot ishini e'lon qilgan. Kuzatishlar natijasida ayollar ko'k ko'ylagi hashamdor bezatilganligi, jegde(qalpoq), ayollar bosh kiyimlari –kiymeshek, saukelar etnografik tahlil qilingan [5, b. 90].

Qoraqalpoqlar qadimiy kiyim-kechaklarining ko'p qismi oilaviy meros sifatida kam saqlanib qolingan, ularning tashqi ko'rinishini mahalliy ma'lumotlar asosida tiklash mumkin. Xususan, teridan tikilgan qadimiy kiyimlardan o'tmishda qoraqalpoqlar kiygan kilka bo'lib, u asosan echki terisidan tikilib, ichida jun bilan qo'y terisibilan qoplangan vapodachilarning ish kiyimi sanalgan. Qoraqalpoq etnografik guruhi tominidan to'plangan etnografik ma'lumotlar tarixchi, etnograflarning asarlarini sezilarli darajada boyitgan. Xodimlarning yozib olgan dala ma'lumotlariga ko'ra, ayrim joylarda qabila guruhlari ixcham joylashgan bo'lib, bu 1940-yilda tuzilgan etnik xaritada o'z aksini topgan. Xalqning ijtimoiy hayotida dehqonchilik ta'limoti va marosimlarda suv chaqirishda ko'plab milliy urf-odat va an'analarning izlari saqlanib qolgan, masalan, turli urug'ovullari o'rtasida bayramlarda o't yinlari va bellashuvlar o'tkazilgan.

Qoraqalpoq xalqining folkloriga e'tibor qaratish, uni yozib olib, o'rganishga kirish XVIII asrning o'rtalariga yaqinlashganda boshlandi. Ayniqsa rus olimlari va sayyohlari qoraqalpoqlarning folklorini o'rganishga qiziqqa boshladi. 1750-yili rus olimi Richkov kelib, qoraqalpoq xalqining hikoyalari bilan ertaklarini, shuningdek "qoraqalpoq" degan so'zning kelib chiqishi haqidagi afsonani yozib olgan va ularni 1759-yili, "Sochineniya tarjimalari" degan jurnalning avgust sonida bosib chiqaradi. N. A. Baskakov 1926-1945-yillar orasida respublikamizning barcha tumanlarida folklor ekspeditsiyalarida qatnashdi [6, b. 28]. Unda u, qoraqalpoq xalq ertaklarini, qo'shiqlarini, urf-odat qo'shiqlarini, maqol-matallarini, xullas,

bundan ham boshqa xalq og‘zaki ijodining boshqa turlarini to‘pladi. N.A. Baskakov u materiallarini

1951 - yili o‘zining "Qoraqalpoq tili" nomli ikki tomlik asarining birinchi tomida nashr ettirdi. 1930-yili qoraqalpoq iqtisodiyoti va madaniyati ilmiy tadqiqot instituti ochilib, unda qoraqalpoq og‘zaki adabiyotini to‘plash va tadqiq etish bo‘yicha sektorning tashkil etilishi ilmiy kadrlarning yetilishiga keng imkoniyat ochib berdi. Xususan, mashhur folklorshunos Q.Ayimbetovning 1939-yili "Qoraqalpoq adabiyoti va san‘ati" (№3 36-sonida "Qoraqalpoq folklori" (№4 37-son) nomli maqolalari e‘lon qilindi. Yana unda qoraqalpoq folklorini turlarga bo‘lib, janr xususiyatlarini ochib ko‘rsatadi. 40-yillarning ichida endi folklorini ular qoraqalpoq folklori va uning ijrochilari haqida o‘rgana boshladi. Q.Ayimbetov 1941-yili "Xalqning jirov baxshilari," mashhur yozuvchi J. Aymurzayev "Xalq ertaklari bilan qo‘shiqlari," N.Davqarayev "Qoraqalpoq folklori haqida tadqiqotlar" nomli maqolalarini e‘lon qildi. 1959-yili O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining Qoraqalpog‘iston filiali ochildi. Xususan, Q.Ayimbetov, I.Sagitov, Q.Maqqetovlar qoraqalpoq folklorini tadqiq etish muammolaridan doktorlik dissertatsiyalari yoqladi. Bu davr ichida A.Aliyev, A.Alimov, N.Kamalov, Q.Mambetnazarov, T.Nietullayev, M.Nizamatdinov, A.Tajimuratov qoraqalpoq folklori mavzusida nomzodlik dissertatsiyalar yoqlab chiqdi. Qoraqalpoq xalq ertaklarining o‘zi 1940, 1949, 1956, 1959, 1965 - yillari qayta-qayta to‘ldirilib, badiiyati, tarbiyaviy ahamiyati tahlil qilingan ilmiy maqolalar, so‘zboshilar bilan kitob qilib chiqarilib, keng o‘quvchilar ommasiga tarqatildi. 1959-yili filologiya fanlari nomzodi A.Karimov "Alpomish" dostonini qoraqalpoq xalq jirovi Qiyas Qayratdinovdan yozib oldi. 1956-yili "Qirq qiz" dostonini mashhur Qurbonboy jirov Tojiboyevdan taniqli yozuvchi Asan Begimov yozib oldi. O‘shanda - Q.Ayimbetovning Erpolat jirovdan yozib olgan "Edige" dostoni, Ahmet Shamuratov tomonidan mashhur Qulambet jirovdan yozib olingan "Shariyor" dostoni, X.Tajimuratovning Bekmurat baxshidan yozib olgan "G‘arib oshiq" dostoni kitob qilib chiqarildi [7, b. 29].

Bu qoraqalpoq xalq dostonlarini nashriyotda chop etish va uni har tomonlama tadqiqot kelgusi vaqtda ham davom etadi. Shular bilan bir qatorda folklorning boshqa janrlari keng va chuqur tadqiqotning obyekti bo‘lib kelyapti. Ularning ko‘pchiligi xalq og‘zidan yig‘ilib kitob qilib chiqarildi. Ular bo‘yicha yozilgan tadqiqot ishlarida ham chop etildi. Bunga qoraqalpoq xalq ertaklari, xalq qo‘shiqlari, maqol-matallari, topishmoqlari bo‘yicha filologiya fanlari nomzodlari Q.Mambetnazarov, N.Kamalov, A.Tajimuratov, T.Nietullayev, Nizamatdinov, A.Alimovlarning tadqiqotlarining matbuotda e‘lon qilib kelinganligiga misol qilish mumkin. A.Tajimuratov tomonidan qoraqalpoq xalq qo‘shiqlari urush davridagi to‘planib 1965-yili folklorist N.Kamalov tomonidan nashrga tayyorlanib, kitob

qilib chiqarildi. Bu kitoblarning soʻzboshisida mualliflar, xalq qoʻshiqlari qoraqalpoq xalqining qadimdan foydalanib kelayotgan maʼnaviy boyligi ekanini aytib, xalq hayotining obrazdagi aksini har tomonlama ochib berishga intildi. Shuning bilan bir qatorda xalq qoʻshiqlarining klassifikatsiyasi ishlab chiqildi. Xalq ogʻzaki ijodining eng goʻzal namunalaridan hisoblangan "Oʻmirbek latifalari" 1960 - yili "Qoraqalpoq xalq afsonalari" Q.Maqsatov, N.Kamalov, Q.Mambetnazarov tomonidan nashrga tayyorlanib, 1962-yili kitob qilib chiqarildi. Shuningdek, Q.Ayimbetovning "Tizimli soʻzlar" kitobi 1965-yili, S.Abbazov bilan A.Alimovlarning "Topishmoqlar" kitobi 1963 - 1970-yillari kitob qilib chiqarilib, jamoatchiligimizga taqdim etildi [8, b. 30].

Demak ular ogʻizdan-ogʻizga oʻtib turibdi, radio, televideniye orqali, matbuot yordami bilan ham tarqalishi, eʼlon qilinishi mumkin. folklorik asarlar keng maʼnodagi tushuncha boʻlib, u faqat yangi davrda yaratilgan asarlar bilan cheklanib qolmaydi. Bir necha asrlardan beri yashab kelayotgan va bugungi kunda ham xalqning estetik talabini qanoatlantirish uchun faol xizmat qilgan, bizning turmushimizda jonli yashashini yana ham davom ettiradi. qilayotgan baxshi-jirov emas, balki ijro uslubi jihatidan ham bugungi kundagi madaniyatimizda ham maʼlum oʻrin egallab turibdi. Qoraqalpogʻistonda madaniy merosni saqlashda folklor va etnografiya asosiy ilmiy tayanch hisoblanadi. Ular milliy identitetni shakllantirish, tarixiy xotirani saqlash va madaniy merosni kelajak avlodga yetkazishda muhim rol oʻynaydi.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. S.Allambergenov, «Qoraqalpogʻiston hududidagi joylashgan tarixiy va madaniy yodgorliklar tarixidan», «Uzliksiz bilimlendiriw sistemasinda araliqtan oqitiwdinʼ integratsiyasi» atamasindagʻi IV Xalqaraliq ilmiy-teoriyalik konferentsiya, b.316, 2024.
2. Doniyorov A.X, “”Xorazm arxeologiya etnografiya ekspeditsiyasi Oʻzbekiston etnografiya fanida”,” p. 58, 2007.
3. Doniyorov A.X, “Markaziy Osiyo xalqlari etnologiyasi.” in Markaziy Osiyo xalqlari etnologiyasi., Tashkent, Yangi nashr, 2016, p. 115.
4. A.H.Hakimova, “Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasining qoraqalpoqlar etnografiyasini oʻrganishi,” Innovative Development in Educational Activities , vol. 2, no. 22, p. 89, 2023.
5. A.H.Hakimova, “Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasining qoraqalpoqlar etnografiyasini oʻrganishi,” Innovative Development in Educational Activities , vol. 2, no. 22, p. 89, 2023.
6. A. D., “Qaraqalpaq xalq folkloriniʼn izertleniw tariyxı,” "Zamonaviy ilm-fan va ta'lim istiqbollari" ilmiy amaliy konferentsiya , p. 28, 2023.
7. A. D., “Qaraqalpaq xalq folkloriniʼn izertleniw tariyxı,” "Zamonaviy ilm-fan va ta'lim istiqbollari" ilmiy amaliy konferentsiya , p. 28, 2023.
8. A. D., “Qaraqalpaq xalq folkloriniʼn izertleniw tariyxı,” "Zamonaviy ilm-fan va ta'lim istiqbollari" ilmiy amaliy konferentsiya , p. 28, 2023.